

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

8-maxsus
son (5-jild)

2025

SCIENCEPROBLEMS.UZ

**IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING
DOLZARB MUAMMOLARI**

№ 5/8 (5) – 2025

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

TOSHKENT-2025

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:

07.00.00- TARIX FANLARI:

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent;

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori;

Xolikulov Axmadjon Boymahmatovich – tarix fanlari doktori;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent;

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.

09.00.00- FALSAFA FANLARI:

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari doktori (DSc), Professor.

10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

12.00.00- YURIDIK FANLAR:

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b.,;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD);

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi;

13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari

doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD);

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasini mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD).

22.00.00- SOTSIOLOGIYA FANLARI:

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po'latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi.

23.00.00- SIYOSIY FANLAR

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo'tayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

OAK Ro'yxati

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).

07.00.00 – TARIX FANLARI

<i>Choriyeva Nargiza Ibotovna</i> O'ZBEKISTONDA TURIZM VA EKOTURIZMNI RIVOJLANTIRISH: SAMARQAND VILOYATINING SALOHIIYATI	8-11
--	------

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

<i>Xudayarova Zuhra, Turayev Baxtiyor</i> HUDUDDA ASALARICHILIK FAOLIYATINING UY XO'JALIKLARI DAROMADLARIGA TA'SIRINI EKONOMETRIK BAHOLASH	12-22
<i>Dr. Abror Kucharov, Dr. Jyoti Meshram</i> COMPARATIVE ANALYSIS OF INDIAN INVESTMENT IN CENTRAL ASIA AND ITS RELEVANCE FOR UZBEKISTAN	23-32
<i>Qodirov Abubakr, Egamberdiyev Muzaffar</i> O'ZBEKISTON IQTISODIYOTINING TAYANCH HUDUDI: FARG'ONA VILOYATI VA UNING IQTISODIY TARMOQLARI	33-37

09.00.00 – FALSAFA FANLARI

<i>Tursunkulova Shaxnoza Tuychiyevna</i> TASAVVUF ESTETIKASIDA GO'ZALLIKNING TARBIYAVIIY POTENSIALI	38-43
--	-------

10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI

<i>Muxammadieva Mashxura, Amirqulova Gulxayo</i> TIBBIY TERMINOLOGIYANI O'QITISHDA ZAMONAVIIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH	44-49
<i>Naimova Parvina Rustamovna</i> O'ZBEK TILIDA HAYVON OBRAZLARINING FRAZELOGIZMLARDA VA MAQOLLARDA INSON XARAKTERI VA XULQINI IFODA ETISHI	50-54
<i>Tashxujayeva Nigora Madaminjanovna</i> FRAZELOGIK BIRLIKLARDA MIFOLOGEMALARNING KOGNITIV-SEMANTIK TAHLILI	55-58

12.00.00 – YURIDIK FANLAR

<i>Zokirov Sherzod</i> MAHALLIIY DAVLAT HOKIMIYATI ORGANLARI QARORLARI QONUNIYLIGI USTIDAN PROKUROR NAZORATINI RAQAMLASHTIRISH MASALALARI	59-65
<i>Mirzaabdullayeva Matluba Rustamovna</i> YER SERVITUTINI RIVOJLANISHI	66-70
<i>Uzbekova Dilshoda Tulkinovna</i> ИСТОРИЯ И РАЗВИТИЕ ПРОЦЕССУАЛЬНОГО ПРИНУЖДЕНИЯ В УГОЛОВНОМ ПРОЦЕССЕ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН	71-80

<i>Yo'ldoshev Ilhom Abdujalil o'g'li</i> KIBERKORRUPSION JINOYATLAR BO'YICHA AYRIM ILMIY-NAZARIY MULOHAZALAR	81-87
<i>Adizov Alibek Oybek o'g'li</i> ZARARNING TO'LIQ QOPLANISHI MUNOSABATI BILAN JINOYAT ISHLARINI SUDGACHA TUGATISH: NAZARIY VA AMALIY MASALALAR	88-94
<i>Xoligova Gavhar Ramazon qizi</i> CHET EL ELEMENTI BILAN MURAKKABLAHGAN ALIMENT MAJBURIYATLARINI TARTIBGA SOLISHNING NAZARIY HUQUQIY JIHATLARI	95-99
<i>Низомова Настарин Владимировна</i> МЕЖДУНАРОДНОЕ СОТРУДНИЧЕСТВО В СФЕРЕ КИБЕРБЕЗОПАСНОСТИ: СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ ЯПОНИИ И УЗБЕКИСТАНА	100-107
13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI	
<i>To'raeva Gulchiroy Sheralievna</i> RAQAMLI TA'LIM MUHITIDA BO'LAJAK MUHANDISLARNING TEXNOLOGIK KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH	108-114
<i>Xodjayev Anvar Zakirovich</i> OG'IR ATLETIKADA DAST KO'TARISH MASHQINI BAJARISHGA O'RGATISH USLUBIYATI	115-125

Received: 31 August 2025
Accepted: 15 September 2025
Published: 30 September 2025

Article / Original Paper

THEORETICAL AND LEGAL ASPECTS OF REGULATING ALIMONY OBLIGATIONS COMPLICATED BY A FOREIGN ELEMENT

Kholikova Gavkhar

Doctoral student, University of World Economy and Diplomacy

E-mail: gavharkholiqova@gmail.com

Abstract. This article explores the theoretical and legal foundations of the concept of alimony, as well as various scholarly perspectives on its essence and content. It first examines the legal nature and social significance of the institution of alimony obligations as reflected in academic literature. The article then analyzes the views of domestic and foreign legal scholars regarding alimony relations complicated by a foreign element. The comparative study of scholarly conclusions highlights the theoretical issues of regulating such relations under the norms of private international law.

Keywords: alimony obligations, concept of alimony, concept of maintenance, foreign element, private international law, conflict of laws, family law.

CHET EL ELEMENTI BILAN MURAKKABLAHGAN ALIMENT MAJBURIYATLARINI TARTIBGA SOLISHNING NAZARIY HUQUQIY JIHATLARI

Xoliqova Gavhar Ramazon qizi

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada aliment tushunchasining nazariy-huquqiy asoslari hamda uning mazmun-mohiyatiga oid turli olimlarning qarashlari yoritilgan. Avvalo, aliment majburiyatlari institutining huquqiy mohiyati va ijtimoiy ahamiyati ilmiy manbalarda qanday talqin qilinganiga e'tibor qaratiladi. Shundan so'ng, chet el elementi bilan murakkablashgan aliment munosabatlari bo'yicha xorijiy va mahalliy huquqshunoslarning fikrlari tahlil qilinadi. Maqolada olimlarning ilmiy xulosalari qiyosiy o'rganilib, xalqaro xususiy huquq normalarida bunday munosabatlarning tartibga solinishi masalalari nazariy jihatdan ochib beriladi.

Kalit so'zlar: aliment majburiyatlari, aliment tushunchasi, ta'minot tushunchasi, chet el elementi, xalqaro xususiy huquq, kollizion masalalar, oilaviy huquq.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5SI8Y2025N14>

Chet el elementi bilan murakkablashgan aliment munosabatlari tahliliga o'tishdan avval aliment tushunchasiga to'xtaladigan bo'lsak, aliment — bu fuqarolarning o'zaro ijtimoiy va huquqiy majburiyatlaridan biri bo'lib, ko'pincha oilaviy huquq doirasida talqin etiladi. Odatda aliment to'lash majburiyati ota-onaning voyaga yetmagan bolalarga bo'lgan yoki voyaga yetgan farzandlarning ota-ona uchun ta'minoti, ajrimdan so'ng turmush o'rtoqlardan birining boshqasiga ta'minoti sifatida yuzaga keladi. Alimentning maqsadi, uning oluvchisini moliyaviy ta'minlash, hayotiy zarur ehtiyojlarini qoplashga yordam berishdir.

Z.N.Esonova, D.Y.Habibullayev aliment — aliment olish huquqiga ega bo'lgan shaxslar (voyaga yetmagan bola, voyaga yetgan mehnatga layoqatsiz, yordamga muhtoj bola, mehnatga layoqatsiz, yordamga muhtoj ota-ona, er-xotin, sobiq er-xotin, qarindoshlar va boshqa

shaxslar)ning mulkiy huquqlaridan biri, yashash manbai, oziq-ovqat va ta'minot olish shaklidir, deb fikr bildirganlar [1; 5-b.]. Olimlarning ushbu ta'rifida aliment institutiga ijtimoiy va huquqiy nuqtai nazardan juda keng yondashilgan. Ular alimentni faqat majburiyat emas, balki mulkiy huquq sifatida ham tasvirlaydilar, ya'ni aliment olish — shaxsning yashash manbai, oziq-ovqat va umumiy ta'minotini kafolatlovchi vosita ekanini ta'kidlaydilar. Aliment olish huquqi Oila kodeksida mulkiy talab sifatida mustahkamlangan, ammo uni faqat mulkiy huquq doirasida ko'rish ma'lum darajada biryoqlama talqin bo'lishi mumkin. Aliment — bu birinchi navbatda oilaviy-huquqiy majburiyatning ijrosi, ya'ni u mulkiy xarakterga ega bo'lsa-da, uning manbai mulk huquqi emas, balki shaxsiy-oilaviy majburiyat deyish mumkin. Bundan tashqari mualliflar alimentni “yashash manbai” deb belgilashadi, ammo amaliyotda aliment har doim ham yashash uchun yetarli miqdorni ta'minlamaydi. Masalan, qonun bo'yicha belgilangan ulush ($\frac{1}{4}$, $\frac{1}{3}$, $\frac{1}{2}$) yoki qat'iy pul miqdori, inflyatsiya va minimal iste'mol xarajatlaridan past bo'lishi mumkin. Shunday ekan, uni asosiy yashash manbai sifatida emas, balki qo'shimcha ta'minot vositasi sifatida baholash ham o'rinlidir.

Demak, aliment—majburiyati nisbiy oilaviy huquqiy munosabat bo'lib, unga ko'ra oilaning muayyan a'zolari (qarzdorlar) kelishuv yoki sud qarori asosida qonun yoki taraflarning kelishuvida belgilangan shartlar mavjud bo'lganda, boshqa shaxslar (kreditorlar) foydasiga aliment to'lashga majburiyatini oladilar. Kreditorlar esa qarzdorlardan o'z majburiyatlarini bajarishni talab qilish huquqiga ega bo'ladilar.

F.M.Otaxo'jayev, Sh.R.Yuldashevalarning ta'kidlashlaricha, aliment majburiyatlari oila a'zolari o'rtasida sodir bo'lib, amaldagi qonunchilikda bir tomonda davlat, ikkinchi tomonda jismoniy shaxs ishtirok etsa yoki ijtimoiy-huquqiy munosabatlar sodir bo'lsa «nafaqa» so'zi ishlatiladi. Agar oilaviy huquqiy munosabat bo'lib, unda oila a'zolari ishtirok etsa, u holda «aliment» so'zi ishlatiladi [2; 178-b.].

M.Pchelensivaning fikricha, ota-ona va bolalar o'rtasidagi mulkiy munosabatlar orasida ta'minot majburiyatlari muhim o'rin tutadi. Oila qonunchiligi bolani ota-onalar va boshqa oila a'zolari tomonidan boqish, iqtisodiy ta'minlashga majbur qiladi. Agar bu majburiyat bajarilmasa, aliment sud tomonidan bolani boqish uchun undiriladi. «Ta'minot» va «aliment» atamaları bir xil terminlar emas; aliment – bu torroq tushuncha, bu parvarish qilishning bir turi hisoblanadi [3; 215-b.]. M.Pchelensiva keltirgan yondashuvda ikki asosiy jihat e'tiborga molik: birinchisi — ota-ona va bolalar o'rtasidagi mulkiy munosabatlarda ta'minot majburiyatlarining ustuvorligi, ikkinchisi esa “ta'minot” va “aliment” tushunchalari o'rtasidagi farqlash. Muallifning fikriga qo'shilgan holda aytish mumkinki, ota-ona va bolalar o'rtasidagi mulkiy munosabatlar ichida ta'minot majburiyatlari muhim o'rin tutadi. O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi ota-onalarning bolalarni moddiy jihatdan ta'minlashini konstitutsion darajada majburiyat sifatida belgilagan. Bundan tashqari muallif “ta'minot”ni kengroq, “aliment”ni esa torroq tushuncha sifatida talqin qiladi. Bu yondashuv nazariy jihatdan asosli. Chunki, ta'minot — shaxsning yashashi uchun zarur moddiy, ma'naviy va boshqa resurslarni ta'minlashga qaratilgan umumiy majburiyat. Aliment esa qonun bilan belgilangan tartibda majburiy undiriladigan moddiy ta'minotning aniq turidir. Biroq, polemik nuqtai nazardan qaraganda, ushbu farqlash ba'zan ortiqcha “terminologik murakkablik” keltirib chiqaradi. Chunki amaliyotda aliment ham, ta'minot ham ko'pincha bir-biriga sinonim sifatida ishlatiladi, ayniqsa sud va ijro amaliyotida. Bu farqlash faqat nazariyani chuqurlashtirish uchun foydali bo'lsa-da, huquqni qo'llash jarayonida aniq chegaralarni ajratish unchalik samarali bo'lmasligi mumkin.

Biz muallifning “aliment — ta’minotning tor shakli” degan fikriga qo’shilishimiz mumkin, ammo bu farqlashning amaliy ahamiyati cheklangan, chunki sud amaliyotida ular deyarli bir xil kontekstdan chiqmaydi.

U.Maxmudxodjayeva ham “bola ta’minoti” tushunchasi “aliment” tushunchasidan kengroq ekanligi haqida fikr bildiradi. Ta’minot bolaga ixtiyoriy ravishda beriladi, uning hajmi va shakli ota-onalar tomonidan mustaqil ravishda belgilanadi, aliment esa sud qarori bilan yoki sud buyrug’ida, aliment to’lash to’g’risidagi kelishuvga asosan ota-onadan naqd pul shaklida undiriladigan mablag’dir. Alimentni bunday tartibda undirish, bolani ixtiyoriy ravishda ta’minlash yetarli bo’lmaganda, berilgan mablag’lar va boshqa moddiy manfaatlar bolaning ehtiyojlarini qondirish xarajatlarini qoplamaganda amalga oshiriladi [4; 215-b.].

G.Konsevoy esa aliment haqida quyidagicha fikr bildiradi, aliment majburiyatlari o’z mazmuni bo’yicha mulkiy xususiyatga ega. Subyektlarning shaxsi bilan uzviy bog’liqligi, begonalashtirilmasligi va o’tkazilmasligi tufayli bu majburiyatlar oilaviy shaxsiy huquqiy munosabatlarga kiradi. Shunday qilib, aliment majburiyatlari shaxsiy mulkiy oilaviy huquqiy munosabatlar hisoblanadi [5; 29-b.]. G.Konsevoyning fikri aliment majburiyatlarini shaxsiy-mulkiy oilaviy huquqiy munosabatlar sifatida tavsiflashga qaratilgan. Uning yondashuvi uch asosiy elementga tayanadi; alimentning mazmun bo’yicha mulkiy xarakterga ega ekanligi, tomonlarning shaxsi bilan uzviy bog’liqligi, begonalashtirilmasligi va o’tkazilmasligi. Konsevoy aliment majburiyatlarining shaxsiy va mulkiy belgilarini birlashtirib, ularni “shaxsiy-mulkiy” sifatida ta’riflaydi. Bu nazariy jihatdan to’g’ri, chunki uning shaxsiy jihati shundaki, faqat qonunda belgilangan yaqin shaxslar o’rtasida mavjud bo’ladi, tomonlardan biring vafot etishi yoki bola voyaga yetganda aliment majburiyati tugaydi. Mulkiy jihati esa uning moddiy qiymatga ega bo’lgan ta’minot ekanligida ko’rinadi. Biz Konsevoyning alimentni shaxsiy-mulkiy sifatida tavsiflashiga qisman qo’shilamiz, chunki u aliment institutining ikki tomonini ham ko’rsatadi. Ammo huquqni qo’llash amaliyotida alimentning mulkiy xarakteri ustun bo’lib, shaxsiy element esa faqat subyekt doirasini cheklash va begonalashtirilmaslik orqali namoyon bo’ladi. Shu sababli, alimentni “mulkiy majburiyat, lekin shaxsiy elementlarga ega” tarzida ifodalash huquqiy aniqlik nuqtai nazaridan aniqroq bo’lishi mumkin.

O’zbekiston Respublikasi Oila kodeksining 90-moddasida bolalar ta’minot olish huquqi belgilangan, unga ko’ra Voyaga yetmagan bolalar o’z ota-onasidan va boshqa shaxslardan qonunda nazarda tutilgan miqdorda va tartibda ta’minot olish huquqiga ega. Voyaga yetmagan bolalar ta’minoti uchun olingan mablag’, pensiya, nafaqa uning otasi yoki onasi tasarrufida bo’lib, bolaning ta’minoti, tarbiyasi va ta’lim olishi uchun sarflanishi kerak. Oila kodeksining 96-moddasida esa Ota-ona voyaga yetmagan bolalariga ta’minot berishi shart ekanligi ko’rsatib o’tilgan. Agarda ta’minot berilmagan taqdirda sud qarori yoki sud buyrug’i bilan aliment undiriladi.

Xalqaro xususiy huquqda esa aliment munosabatlari o’ziga xos bo’lib, asosan alimentlarni undirish bo’yicha alohida kelishuvlar, shartnomalar tuzilganligi bilan ajralib turadi. Bu esa kollizion normalar orqali tartibga solinib, ikki tomon uchun o’z-o’zini mustaqil idora qilish huquqini beradi [6; 194-b.]. Maxsus shartnomalar va kollizion normalar bu sohaning “yadro”si hisoblanadi.

Konsevoyning ta’kidlashicha, xalqaro xususiy huquqda aliment majburiyati xorijiy element bilan murakkablashtirilgan oilaviy aliment huquqiy munosabatlarini o’z ichiga oladi. Xorijiy element ko’p hollarda majburiyatning subyekt tarkibiga taalluqli bo’ladi, ya’ni

subyektlardan biri (aliment to'lovchi yoki oluvchi) chet ellik fuqaro hisoblanadi [7]. Xalqaro aliment munosabatlarini boshqa ichki aliment munosabatlaridan ajratib turuvchi asosiy differensial belgi — xorijiy element. Bu element ko'pincha shartnoma joyi yoki majburiyatning bajarilish hududida emas, balki majburiyat subyektlari fuqaroligida yoki yashash joyida namoyon bo'ladi. Bu jarayonda kollizion huquqda qo'llaniladigan personal statut (lex personalis) tushunchasi dolzarb hisoblanadi. Aliment majburiyati yuzasidan qaysi davlat huquqini qo'llash masalasi bevosita subyektlarning huquqiy aloqasi va ularning fuqaroligi yoki yashash joyi bilan bog'liq bo'ladi.

N.Raxmonkulovaning fikricha chet el elementi — bu aliment munosabatlariga taalluqli bo'lgan vaziyatda bir yoki bir nechta tomonlarning chet elda yashashini anglatadi. Masalan, aliment to'lovchisi yoki oluvchisi boshqa mamlakatda yashashi yoki taraflardan biri chet el fuqarosi bo'lishi mumkin. Bunday hollarda aliment to'lash yoki olish bo'yicha mavjud me'yorlarni aniqlash, tegishli qonunlarni aniqlash va tanlash juda murakkab bo'ladi. Davlatlarning ichki qonunchiliklari o'rtasida hech qanday farq bo'lmasa, chet el elementi bilan huquqiy munosabat yuzaga kelganda kollizion muammo vujudga kelmaydi. Ushbu holat, mazkur munosabatda chet el elementi mavjudligiga qaramay, uni tartibga solish uchun xalqaro xususiy huquq normalariga murojaat qilish zaruratini istisno etadi [8]. Bu fikri xalqaro xususiy huquqdagi juda muhim, lekin ko'pincha noto'g'ri tushuniladigan jihatni ochib beradi — chet el elementi mavjudligi avtomatik ravishda kollizion masala yuzaga kelishini anglatmaydi. Muallif shuni ta'kidlaydi: agar ikki davlatning ichki qonunchiliklari o'rtasida normativ tafovut bo'lmasa, xalqaro xususiy huquq mexanizmlarini ishga solish shart emas. Bu — “material-huquqiy garmoniya” (material legal harmony) deb ataluvchi holat. Xalqaro xususiy huquqda kollizion normalar faqat qo'llaniladigan huquqni aniqlash zarurati bo'lganda ishga tushadi. Agar huquqiy natija ikki davlat qonunchiligida bir xil bo'lsa, qaysi huquq qo'llanilishini aniqlash masalasi o'z ahamiyatini yo'qotadi. Bu holatda kollizion bog'lovchi mezonlarni qo'llashga ehtiyoj yo'q. Masalan, O'zbekiston va qo'shni davlat qonunchiligi ota-onaning voyaga yetmagan farzandini moddiy ta'minlash majburiyatini bir xil asoslarda belgilasa, aliment to'lovchi chet elda yashasa ham, qo'llaniladigan huquq masalasida nizo bo'lmaydi — sud to'g'ridan-to'g'ri substantiv normani qo'llaydi. N.Rahmonkulova qarashi ilmiy jihatdan asosli — chet el elementi mavjudligi kollizion muammo mavjudligini kafolatlamaydi. Ammo amaliyotda normativ o'xshashlikni faqat formal matn darajasida emas, balki talqin va ijro jarayoni darajasida ham tekshirish zarur. Aks holda, “farq yo'q” degan taxmin keyinchalik ijro bosqichida murakkabliklar keltirib chiqarishi mumkin.

Shu sababli, chet el elementi bilan murakkablashgan xususiy huquqiy munosabatlarning xalqaro xususiy huquq doirasiga kiritilishiga sabab bo'luvchi yana bir omil turli mamlakatlar qonunchiligidagi farqlardir. G.Yu. Fedoseevaning fikricha, chet el elementining nikoh-oila munosabatlarida mavjudligi ularning nikoh-oila munosabatlari sifatidagi tavsifini o'zgartirmaydi, aksincha qo'llaniladigan huquqni tanlash muammosini o'rganish zaruriyatini keltirib chiqaradi. Bu esa, o'z navbatida, ularga xalqaro xususiy huquq obyekti sifatini beradi [9]. Fedoseeva fikri nikoh-oila munosabatlaridagi chet el elementi tushunchasiga juda aniq va klassik yondashuvni aks ettiradi. Uning fikricha, chet el elementi bu munosabatlarning huquqiy tabiatini (ya'ni, ularning “nikoh-oila munosabatlari” sifatidagi mohiyatini) o'zgartirmaydi — ular baribir oilaviy-huquqiy munosabat bo'lib qoladi. Ammo bunday vaziyat qo'llaniladigan huquqni aniqlash, qaysi davlat qonunchiligi tatbiq etilishini belgilash kabi

kollizion tahlil zaruratini yuzaga keltiradi. Shu nuqtada Fedoseeva ushbu munosabatlarni xalqaro xususiy huquqning obyekti sifatida tasniflaydi, chunki qo'llaniladigan huquqni tanlash masalasi aynan ushbu soha doirasida hal etiladi. Bu yondashuvning afzalligi — ta'riflarning qat'iyligi va huquqiy kategoriyalarning aniqligi: Chet el elementi mavjud bo'lsa ham, asosiy huquqiy tabiat o'zgarmaydi, ya'ni oila munosabatlari oilaviy-huquqiy munosabat bo'lib qoladi. Farq shundaki, ular xalqaro xususiy huquq mexanizmlarini ishga solishni talab qiladi.

Xulosa. Chet el elementi bilan murakkablashgan aliment majburiyatlarini tartibga solish nazariy-huquqiy jihatdan murakkab va ko'p qirrali masala hisoblanadi. Avvalo, aliment majburiyatlarining mohiyati – oilaviy munosabatlarni mustahkamlash, ijtimoiy adolatni ta'minlash hamda yordamga muhtoj shaxslarning manfaatlarini himoya qilishga qaratilganligi bilan izohlanadi. Ilmiy manbalar tahlili shuni ko'rsatadiki, xorijiy element mavjud bo'lgan aliment munosabatlari xalqaro xususiy huquq doirasida tartibga solinadi va bu jarayonda kollizion normalarning ahamiyati alohida o'rin tutadi.

O'zbekiston qonunchiligi va xalqaro shartnomalarning uyg'unligi aliment majburiyatlarining samarali ijrosini ta'minlashda muhim omil hisoblanadi. Shu bilan birga, xorijiy tajribalar ham ko'rsatadiki, bu sohada yagona yondashuv emas, balki turli huquqiy tizimlarning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda kompleks mexanizmlar ishlab chiqilishi talab etiladi.

Shunday qilib, chet el elementi bilan murakkablashgan aliment majburiyatlarini nazariy asosda chuqur o'rganish, huquqshunos olimlarning qarashlarini tahlil qilish va ularning qiyosiy xulosalaridan foydalanish ushbu sohada milliy qonunchilikni yanada takomillashtirishga, xalqaro hamkorlikni rivojlantirishga va aliment munosabatlarida shaxs manfaatlarini yanada kengroq himoya qilishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksi. – <http://www.lex.uz>
2. Abduraxmonova X.B. *Xalqaro xususiy huquqda ota-ona va farzandlar o'rtasidagi munosabatlarning tartibga solinishi*. Yuridik fan doktori (DSc) dissertatsiyasi. – Toshkent, 194 b.
3. Esanova Z.N., Habibullaev D.Yu. *Bola uchun aliment undirish huquqingiz bor*. Risola. – Toshkent: TDYU nashriyoti, 2021. – 5 b.
4. Концевой Г.В. *Алиментные обязательства в международном частном праве*. Дисс. ... канд. юрид. наук. – Саратов, 2015. – 29 с.
5. Maxmudxodjayeva U. *Ota-ona va bolalar o'rtasidagi munosabatlarni oilaviy va fuqaroviy-huquqiy tartibga solishni takomillashtirish*. Yuridik fan doktori (DSc) dissertatsiyasi. – Toshkent, 215 b.
6. Otaxodjayev F.M., Yuldasheva Sh.R. *Oila huquqi*. – Toshkent: TDYUI, 2009. – 178 b.
7. Пчелинцева Л.М. *Семейное право России: учебник для вузов*. – Москва, 1999. – 362 с.
8. Rahmonkulova N.X-A. *Xalqaro xususiy huquqda nikoh munosabatlari: Monografiya*. – Toshkent, 2024.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOYIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 5/8 (5) – 2025

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).